



XALQ DEPUTATLARI CHUST TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 30 - dekabr

VI-53-123-6-89-K/22

Chust tuman hokimligi

Namangan viloyati Chust tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6, 19, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2022-yil 30-dekabrda VI-35-165-6-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, Namangan viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-dekabrda 01-14/20-01-32/2697-sonli xatini hamda Chust tuman hokimining 2022-yil 30-dekabrda 01-08/759-sonli "Namangan viloyati Chust tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi taqdimnomasini ko'rib chiqib, xalq deputatlari Chust tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2022-yil 30-dekabrda "Namangan viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-35-165-6-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq, Namangan viloyati Chust tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 113 420 124,0 ming so'm, xarajatlari 331 048 079,0 ming so'm prognoz qilinganligi hamda viloyatning viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 217 627 955,0 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil uchun Chust tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1- ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.
3. 2023-yil uchun viloyat budgetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. 2023-yil uchun Chust tuman budgetidan hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
5. 2023-yil uchun tuman budgetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
6. 2023-yil uchun Chust tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 3 120 578,0 ming so'm miqdorida belgilansin.
7. 2023-yil uchun viloyatning Chust tuman budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budget mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 1 019 114,0 ming so'mga belgilansin.
8. O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi mazkur qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budget xarajatlarini hududiy budget mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Chust tuman budgetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslar yer solig'i;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'implar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'implar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'implardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkohol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha, tabiiy gaz uchun qat'iy belgilangan stavkadagi aksiz solig'i, neft mahsulotlari uchun aksiz solig'ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar tegishincha 2022-yilning 1-iyul holatiga ko'ra Namangan viloyati aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

v) viloyat budjeti hamda Chust tuman budjeti o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-409-son qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida

moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budget” axborot portali orqali ovoz berish yo’li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo’yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo’yilishi;

b) Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo’shimcha mablag’larning 30 foizi tumanda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman Fuqarolar tashabbusi jamg’armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo’naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so’m mablag’ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Chust tuman hokimining birinchi o’rinbosari – J.Baxodirov, Moliya bo’limi mudiri – A.Umarov, Davlat soliq inspeksiyasi (N.Maxkamov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko’rsatkichlarni o’z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo’shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Chust tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Maxkamov) O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

solliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu solliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan solliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun solliq va mol-mulk solliqlari bo'yicha doimiy tahlililar o'tkazgan holda, solliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu solliq to'lovlari bo'yicha solliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan solliq turi bo'yicha solliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining solliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy solliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral solliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining solliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

12. Chust tuman hokimining birinchi o'rinbosari – J.Baxodirov, Moliya bo'limi mudiri – A.Umarovga:

Chust tuman budjeti tasdiqlangan xarajatlarning (zaxira jamg'armasi mablag'larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag'lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy budjetlarda shakllangan qo'shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirsin.

Bunda, Chust tumani xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo'limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'yektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi

oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

13. Tuman hokimining axborot xizmati rahbari – X.Ismoilova hamda Z.Mehomonova tomonidan mazkur qaror “Chust haqiqati” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Chust tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.
14. Mazkur qaror ijrosi Chust tumani hokimligiga, nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими



Б.Хамдамов

Xalq deputatlari Chust tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-53-123-6-89-K/22-son qaroriga
1-ilova

2023-yil uchun Chust tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming sumda

Daromad turlari		Chust tumani
1	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 647 141
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	14 229 817
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1 774 063
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 161 322
5	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	11 642 571
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 461 242
7	Yuridik shaxslar yer solig'i	10 100 485
8	Korxonalar aylanmasidan soliq	11 731 647
9	Yig'imlar	5 569 508
10	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	238 380
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	44 863 948
JAMI		113 420 124

Xalq deputatlari Chust tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-53-123-6-89-K/22-son qaroriga
2-ilova

**2023-yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga
soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori**

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Chust tumani
1	Chust tumani	217 627 955

Xalq deputatlari Chust tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-53-123-6-89-K/22-son qaroriga
3-ilova

**2023 yil uchun Chust tumani budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga
ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdori**

ming sumda

T/r	Ko'rsatkichlar	Chust tumani
1	Chust tumani bo'yicha jami	331 048 079,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	312 057 815,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	0,0
	zaxira jamg'armasi	3 120 578,0
	Tashabbusli budjet jamgarmasi	15 869 686,0
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
1	Chust tumani xalq ta'limi bo'limi	13 557 927,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 557 927,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
2	Chust tumani maktabgacha ta'lim bo'limi	25 733 576,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	25 733 576,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3	Chust tumani tibbiyot birlashmasi	108 511 701,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	108 511 701,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
4	Chust tumani madaniyat bo'limi	5 143 759,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 143 759,0
	shundan:	

	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
5	Chust tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	1 549 413,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 549 413,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6	Chust tuman bolalar va o'smirlar sport maktabi	6 768 796,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 768 796,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
7	Chust tumani aholi bandligiga ko'maklashish markazi	718 207,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	718 207,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8	Chust tumani moliya bo'limi	1 343 402,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 343 402,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
9	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Chust tumanidagi muassasalar	524 419,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	524 419,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10	Xalq deputatlari Chust tumani Kengashi	206 058,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	206 058,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

11	Chust tumani hokimligi	130 418 783,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	111 695 314,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	Zaxira jamg'armasi	3 120 578,0
	Tashabbusli budjet jamgarmasi	15 602 891,0
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
12	Chust tumani mahalla va nuroniylar qullab-quvvatlash bo'limi	5 795 028,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 795 028,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
13	Chust tumani Yoshlari ishlari agentligi bo'limi	6 872 303,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 872 303,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
14	Chust tumani oila va xotin-qizlar bo'limi	4 610 277,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 610 277,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15	Chust tumani obodonlashtirish boshqarmasi	15 277 907,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	15 277 907,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15	Chust tuman irrigatsiya bo'limi	2 404 365,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 404 365,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16	Chust tuman qishloq xo'jaligi bo'limi	1 345 363,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 345 363,0
	shundan:	

	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Xalq deputatlari Chust tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-53-123-6-89-K/22-son qaroriga
4-ilova

2023-yil uchun Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar

(foiz hisobida)

№	Hudud nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik jismoniy shaxslar yer solig'i		Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i		Korxonalar aylanmasidan soliq		Davlat boji		Jarimalar	
		Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga
1	Chust tumani	100%	0%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%

Yig'imlar	Davlat unitar korxonalaridan dividend tushumlari		Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i		Davlat mulkini xususlashtirishdan tushumlar		Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	
	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga

100%	0%	0%	100%	100%	0%	50%	50%	0%	100%	0%	100%
------	----	----	------	------	----	-----	-----	----	------	----	------